



ZAMONAVIY KO'P MADANIYATLI MAKONDA MUTAXASSISLIK TA'LIMI VA KASBIY TA'LIM

I.M.Tuxtasinov

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori,
professor, filologiya fanlari doktori*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995120>

Bugungi kunda globallasuv va texnologik taraqqiyot ta'lim sohasini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, mutaxassislik va kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Zamonaviy dunyoda ta'lim bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga, madaniyatlararo muloqot va o'zaro hamkorlikni mustahkamlovchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun turli madaniyatlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish muhim hisoblanadi.

Bugungi tashkil etilgan "Zamonaviy ko'p madaniyatli makonda mutaxassislik ta'limi va kasbiy ta'lim" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni e'tiborli jihati shundaki, ko'p madaniyatli makonda ta'limning o'ziga xos xususiyatlari madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, ko'p tilli ta'lim tizimini joriy etish, ta'lim jarayoniga darslik va o'quv qo'llanmalarni moslashtirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish borasida olimlar o'z qarashlarini ifoda etishadi hamda ilmiy xulosalar asosida o'z takliflarini taqdim etishadi.

Mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun faqat nazariy bilimlar yetarli emas, balki amaliy ko'nikmalar va madaniyatlararo muloqot qobiliyati ham katta ahamiyatga ega. Har bir mutaxassis o'z kasbida yetuk bo'lishi bilan birga, turli madaniyatlar bilan hamkorlik qila olishi, ularning qadriyatlarini tushunishi va hurmat qilishi zarur.

Ta'lim jarayonida mutaxassislik ta'limi va kasbiy ta'lim jarayoniga ham alohida e'tibor berilmoqda. Kasbiy ta'lim shakli bo'lgan dual ta'lim mamlakatimiz ta'lim tizimiga keng joriy qilindi, ushbu tizimni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Kasbiy ta'lim bi bo'lagi bo'lgan dual ta'limni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mutaxassislar jalb qilinmoqda, mahalliy mutaxassislar Buyuk Britaniya, Finlandiya, Germaniya, Avstriya, Koreya va boshqa davlatlarga tajriba o'rganish maqsadida yuborilmoqda va dual ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ustida ishlanmoqda.

Bugungi cheksiz axborotlar oqimi davrida texnika va texnologiyalar taraqqiyotini tilshunoslikka doir tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirish, fan-texnika



yutuqlarini sun'iy intellekt bilan uyg'unlashtirgan holda tilni har jihatdan chuqurroq o'rganish hamda tilning qo'llanish imkoniyatlarini kengaytirish, nufuzini oshirish singari vazifalar tilshunoslarimiz oldida turgan eng dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi". Bugungi kunda IT-texnologiyalari, raqamlashtirish xizmatlari o'zgarishlar va innovatsiyalarga boy sohaga, inson hayotini osonlashtiradigan qulay va samarali vositalardan biriga aylandi. Ushbu sohadagi o'zgarishlar tez va jadal odimlash, doimiy o'zgaruvchanlik xarakteriga ega. "Raqamli O'zbekiston-2030" davlat dasturi natijasida O'zbekiston aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-maishiy sohalarda IT-texnologiyalari yutuqlaridan har kuni foydalanmoqda. Biroq, "Raqamli O'zbekiston-2030" davlat dasturini hayotga tatbiq etishda o'zining yutuq va kamchiliklari ham mavjud. IT texnologiyalari yutuqlari, jamiyatni raqamlashtirish jarayonlari, sun'iy intellektning rivojlanishi, albatta, til tizimiga ham ta'sir ko'rsatdi, muloqotni virtual darajaga olib chiqdi.

Bugungi globallashtirgan va ko'p madaniyatli jamiyatda mutaxassislik ta'limi va kasbiy ta'lim nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki madaniy muloqot, ijtimoiy uyg'unlik va innovatsiyalarning muvaffaqiyati uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda mazkur konferensiya xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, turli til va madaniyat vakillari o'rtasidagi samarali kommunikatsiyani ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

"Zamonaviy ko'p madaniyatli makonda mutaxassislik ta'limi va kasbiy ta'lim" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ma'ruzachi, mehmon va maqola muallifi sifatida faol ishtirok etganingiz uchun samimiy minnatdorligimizni izhor etamiz va barchangizga yurtimiz ilm-fani taraqqiyoti yo'lida ulkan yutuqlarga erishishingizni tilaymiz!